

**EKOLOGIK RESURSLARDAN TURIZM SOHASIDA  
FOYDALANISHNING HUDUDIIY MODELII: FARG'ONA VILOYATI  
TAJRIBASI.**

*Mamajonova Shoiraxon Vohidjon qizi*

*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti magistranti.*

[\*fionaenglish02@gmail.com\*](mailto:fionaenglish02@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Farg'ona viloyatining ekologik resurslaridan turizm sohasida samarali foydalanish masalalari ko'rib chiqilgan. Viloyatdagi tabiiy, madaniy va ekologik salohiyat tahlil qilinib, ulardan raqobatbardosh turistik mahsulot yaratishda foydalanish imkoniyatlari baholangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Farg'ona viloyatida ekoturizm rivojlantirish potentsiali yuqori bo'lib, to'g'ri yondashuv viloyat iqtisodiyotiga yiliga kamida 12–15% qo'shimcha hissa qo'shishi mumkin. Maqolada hududiy ekoturizm modeli taklif etilgan va uni amalga oshirish uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ekoturizm, ekologik resurslar, Farg'ona viloyati, hududiy turizm modeli, barqaror rivojlanish, tabiiy park, biosfera qo'riqxonasi, turistik klaster.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы эффективного использования экологических ресурсов Ферганской области в туристическом секторе. Анализируется природный, культурный и экологический потенциал региона, оцениваются возможности его использования для создания конкурентоспособного туристического продукта. Результаты исследования показывают, что потенциал развития экотуризма в Ферганской области высок, и правильный подход может внести дополнительный вклад в региональную экономику не менее чем на 12–15% в год. В статье предлагается региональная модель экотуризма и даются практические рекомендации по ее внедрению.

**Ключевые слова:** экотуризм, экологические ресурсы, Ферганская область, региональная модель туризма, устойчивое развитие, природный парк, биосферный заповедник, туристический кластер.

**Abstract:** This article considers the issues of effective use of ecological resources of Fergana region in the tourism sector. The natural, cultural and ecological potential of the region is analyzed, and the possibilities of using them to create a competitive tourist product are assessed. The results of the study show that the potential for developing ecotourism in Fergana region is high, and the right approach can make an additional contribution to the regional economy by at least 12–15% per year. The article proposes a regional ecotourism model and gives practical recommendations for its implementation.

**Keywords:** ecotourism, ecological resources, Fergana region, regional tourism model, sustainable development, natural park, biosphere reserve, tourist cluster

**Kirish:** Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, global ekoturizm sektori yiliga 14–15% sur'atda o'sib bormoqda va 2023 yilda ushbu sohadan tushgan daromad 600 mlrd. AQSh dollaridan oshdi<sup>1</sup>. Markaziy Osiyo mintaqasi, jumladan O'zbekiston, o'zining noyob tabiiy, madaniy va tarixiy merosi bilan jahon turizm xaritasida tobora muhim o'rin egallayapti. Farg'ona viloyati O'zbekistonning eng serhosil va ekologik jihatdan xilma-xil hududlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda Qo'qon, Marg'ilon, Farg'ona kabi tarixiy shaharlar, Quva tog' tizmasi, Oloy vodiysi chegaralari va o'ziga xos biologik xilma-xillik mavjud. Shu bilan birga, so'nggi yillarda viloyat iqtisodiyotida turizmning ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda.

O'zbekiston Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmoni va 2023 yil 28 apreldagi "O'zbekistonda turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida ekoturizm alohida strategik yo'nalish sifatida belgilangan. Ushbu siyosiy hujjatlar kontekstida Farg'ona viloyatining ekologik resurslardan

---

<sup>1</sup> UNWTO (2023). Tourism Highlights 2023 Edition. World Tourism Organization, Madrid.

samarali foydalanishning ilmiy asoslangan hududiy modelini ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

**Asosiy qisim:** Ekoturizm nazariyasining asoslarini Ceballos-Lascuráin ishlab chiqqan bo'lib, u ekoturizmni "tabiatga, mahalliy madaniyat va biologik xilma-xillikni himoya qilish maqsadida amalga oshiriladigan sayohatlar" sifatida ta'riflaydi. Keyinchalik Fennell bu kontseptsiyani kengaytirib, ekoturizmga ijtimoiy va iqtisodiy o'lchamlarni qo'shdi<sup>2</sup>.

Hududiy turizm modellarini tadqiq qilishda Butler ning "Turistik hudud hayot sikli" (TALC) modeli asosiy nazariy doira sifatida qo'llaniladi. Ushbu model sayyohlik joylarini rivojlanish bosqichlari bo'yicha: kashf etish, kirib borish, rivojlanish, mustahkamlanish, turib qolish va pasayish yoki qayta tiklanish — tahlil qiladi<sup>3</sup>. Farg'ona viloyati hozirda «rivojlanish» bosqichida bo'lib, to'g'ri strategik aralashuvsiz «turib qolish» bosqichiga o'tib ketishi xavfi mavjud.

O'zbekiston kontekstida Toshmatov va Yo'ldoshev larning ishlari viloyatlar darajasida ekoturizm rivojlanishining mintaqaviy xususiyatlarini yoritib bergan. Xalqaro tajribada esa Avstriya (Alpine ekoturizm modeli) va Kostarika (barqaror ekoturizm klasterlari) tajribalari Farg'ona uchun eng maqbul analoglar hisoblanadi<sup>4</sup>.

***1-jadval. Farg'ona viloyatida turizmning asosiy ko'rsatkichlari (2019–2023)***

| Ko'rsatkich                 | 2019 | 2020 | 2021 | 2022  | 2023  |
|-----------------------------|------|------|------|-------|-------|
| Turistlar soni (ming kishi) | 87.4 | 31.2 | 54.6 | 112.8 | 168.3 |
| Shu jumladan xorijiy        | 22.1 | 6.4  | 12.9 | 38.7  | 67.4  |

<sup>2</sup> Fennell, D. A. (2008). Ecotourism (3rd ed.). Routledge, London and New York. Ceballos-Lascuráin, H. (1996). Tourism, ecotourism, and protected areas. IUCN, Gland, Switzerland.

<sup>3</sup> Butler, R. W. (1980). The concept of a tourist area cycle of evolution. Canadian Geographer, 24(1), 5–12.

<sup>4</sup> Toshmatov, A. (2021). Farg'ona vodiysining tabiiy resurslari va ulardan turizm maqsadlarida foydalanish. O'zMU xabarlari, 112–118. Yo'ldoshev, S. (2022). Hududiy iqtisodiyotda turizm klasterlarini shakllantirish metodologiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti.

| Ko'rsatkich                  | 2019  | 2020  | 2021  | 2022  | 2023  |
|------------------------------|-------|-------|-------|-------|-------|
| turistlar (ming)             |       |       |       |       |       |
| Turizm daromadi (mlrd. so'm) | 184.6 | 68.3  | 127.4 | 312.5 | 498.2 |
| Ekologik turizm ulushi (%)   | 8.2   | 9.1   | 11.4  | 15.6  | 21.3  |
| Mehmonxona joylari soni      | 2 840 | 2 840 | 3 120 | 4 260 | 5 890 |

*Manba: Farg'ona viloyat Statistika boshqarmasi, 2023; O'zDTQ, 2023<sup>5</sup>.*

1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, COVID-19 pandemiyasi ta'siridan keyin Farg'ona viloyati turizmida tezkor tiklanish kuzatilmoqda. 2023 yilda turistlar soni 2019 yilga nisbatan 92.6% ga oshgan bo'lsa, ekologik turizm ulushi 8.2% dan 21.3% ga ko'tarilgan. Bu tendentsiya viloyatda ekoturizm bozori shakllanayotganligidan dalolat beradi.

### **Farg'ona viloyatining ekologik resurslari xaritasi shuki.**

Tadqiqot natijalari asosida Farg'ona viloyatining ekologik resurslari to'rtta asosiy kategoriyaga ajratildi. Birinchi kategoriya — tog' va adir ekosistemalari: Quva, Oloy va Chimyon tog' tizmalari umumiy maydoni 87 500 gektarni tashkil etib, alp o'tloqlari, noyob flora va fauna turlarini o'z ichiga oladi. Bu hududlarda 127 ta endemik o'simlik turi va 43 ta qizil kitobga kiritilgan hayvon turi qayd etilgan.<sup>6</sup> Ikkinchi kategoriya — suv resurslari va vohalar: Qoradaryo va Norin daryolari, Katta Farg'ona kanali tarmog'i, Uchqo'rg'on suv ombori va kichik tog' ko'llari umumiy uzunligi 2 400 km ni tashkil etadi. Uchinchi kategoriya — tarixiy-madaniy ekoturizm resurslari: UNESCO ro'yxatiga kiritilgan Buyuk Ipak yo'li

<sup>5</sup> Farg'ona viloyat Statistika boshqarmasi (2023). Farg'ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari. Farg'ona.

<sup>6</sup> O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (2022). Biologik xilma-xillik monitoringi: Farg'ona hududi. Toshkent.

merosiga mansub 14 ta tarixiy yodgorlik va 6 ta hunarmandchilik markazi mavjud. To'rtinchi kategoriya — agro-ekologik landshaftlar: organik dehqonchilik va an'anaviy bog'dorchilik an'alarini saqlab kelayotgan 34 ta qishloq xo'jaligi hududi tadqiqotda aniqlangan.

### **SWOT tahlili**

Farg'ona viloyatining ekoturizm salohiyatini baholash uchun o'tkazilgan SWOT tahlili quyidagi xulosalarni berdi. Kuchli tomonlar: geografik markaziylik (Toshkent, Qirg'iziston, Tojikistonga yaqinlik), noyob biologik xilma-xillik, boy madaniy meros va mahalliy aholining mehmondo'stlik an'analari. Zaif tomonlar: ekoturizm infratuzilmasining yetishmasligi, malakali ekotur-gidlar taqchilligi, marketingning sustligi va raqamli platforma integratsiyasining past darajasi.

Imkoniyatlar: O'zbekiston Prezidentining turizm bo'yicha ustuvor siyosati, xalqaro donor tashkilotlarining (USAID, GIZ, JICA) moliyaviy qo'llab-quvvatlashi, Sharqiy Yevropa va Janubi-sharqiy Osiyo bozorlaridan o'sib borayotgan talab.

Tahdidlar: haddan tashqari turistik yuklanish xavfi, va qo'shni viloyatlar bilan raqobat kuchayishi.

### **HUDUDIIY EKOTURIZM MODELI**

#### **Klaster yondashuvi:**

Tadqiqot natijalariga asoslanib, Farg'ona viloyatida uchta strategik ekoturizm klasteri aniqlandi. Birinchi klaster — "Quva-Oloy" eko-avantyura klasteri (shimoliy hududlar): tog' trekingi, alpinizm, rafting, ob-havo parashyuti va botanik marshrutlarni o'z ichiga olgan 7 ta asosiy attraksion. Ushbu klaster yiliga 45–50 ming turist sig'imiga ega deb baholandi. Ikkinchi klaster — "Marg'ilon-Rishton" madaniy-ekologik klasteri (markaziy hududlar): an'anaviy atlas to'qimachilik, kumush zargarlik, keramika ustaxonalari va organik bog'larni birlashtirgan agro-ekoturizm yo'nalishlari. Uchinchi klaster — "Qo'qon-Quva" tarixiy ekoturizm klasteri (g'arbiy hududlar): Qo'qon xonligi tarixi, Ipak yo'li turlar va tarixiy vodiylar kombinatsiyasi. Ushbu klaster modeli Avstriya Alpine

Regional Tourism Clustering Experience (Weiermair & Mathies, 2004) asosida moslashtirilgan bo'lib, mahalliy iqtisodiy multiplikator ta'sirini maksimal darajada oshirishga yo'naltirilgan.

**2-jadval. Hududiy ekoturizm klasterlarining iqtisodiy prognozi (2025–2030)**

| <b>Klaster</b>                   | <b>2025-<br/>prognoz<br/>(ming<br/>turist)</b> | <b>2028-<br/>prognoz</b> | <b>2030-prognoz</b> | <b>Kutilayotgan<br/>daromad (2030,<br/>mlrd. so'm)</b> |
|----------------------------------|------------------------------------------------|--------------------------|---------------------|--------------------------------------------------------|
| Quva-Oloy avantyura              | 58                                             | 94                       | 140                 | 320–380                                                |
| Marg'ilon-Rishton<br>madaniy-eko | 72                                             | 118                      | 175                 | 410–460                                                |
| Qo'qon-Quva tarixiy              | 45                                             | 79                       | 115                 | 240–280                                                |
| Jami viloyat bo'yicha            | 175                                            | 291                      | 430                 | 970–1 120                                              |

*Manba: Muallif hisob-kitoblari; O'zDTQ bazaviy ma'lumotlari (2023).*

**Ekologik sig'im va karyering tizimi**

Ekoturizmning barqarorligi uchun hududning ekologik sig'imini (carrying capacity) to'g'ri hisoblash zarur. Liddle metodikasi (turizmning tabiiy hududlarga ta'sirini, ayniqsa rekreatsion bosim va ekologik o'zgarishlarni baholashga qaratilgan ilmiy yondashuvdir) <sup>7</sup>va UNESCO ko'rsatmalariga asoslanib, tadqiqotda Farg'ona viloyatining asosiy ekologik zonalari uchun maksimal ruxsat etilgan turistik yuklanish (PCC — Permissible Carrying Capacity) hisoblandi. Quva tog' yo'lakli ekotizimi uchun kunlik PCC = 320 kishi/km, Rishton kulolchilik shaharchasi uchun PCC = 150 kishi/kun deb belgilandi.

Ushbu ko'rsatkichlar asosida mobil monitoring tizimi joriy etish tavsiya etiladi. Kostarika milliy parklari tajribasida ko'rsatilganidek, real vaqtda kuzatish

<sup>7</sup> Liddle, M. J. (1997). *Recreation Ecology: The Ecological Impact of Outdoor Recreation and Ecotourism*. London: Chapman & Hall, pp.

tizimi ekologik zararni 40% gacha kamaytiradi. O'zbekistonda 2022–2023 yillarda shu turdagi ilk tizimlar Chimyon va Sarmishsoy tabiiy parklarida sinovdan o'tkazilmoqda.

## **AMALIY TAVSIYALAR VA XULOSA**

### **Siyosiy tavsiyalar**

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Birinchidan, Farg'ona viloyat hokimligi huzurida maxsus "Ekoturizm koordinatsion kengashi" tuzish zarur bo'lib, uning tarkibiga mahalliy kengash, xususiy sektor vakillari, ilmiy tashkilotlar va mahalliy jamoalar kiritilishi kerak. Bu model Shveytsariyaning Graubünden kantoni tajribasida <sup>8</sup> muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan.

Ikkinchidan, viloyat budjetidan yiliga kamida 0.5% ni ekoturizm infratuzilmasini rivojlantirishga yo'naltirish lozim. Xalqaro tajriba (Kostarika) ko'rsatadiki, ekoturizmga qilingan har 1 dollar davlat investitsiyasi 7–11 dollar iqtisodiy multiplikator ta'sir beradi. O'zbekiston Turizm va madaniy meros vazirligi bilan birgalikda 2025–2030 yillarga mo'ljallangan "Farg'ona ekoturizm yo'l xaritasi" ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

### **Kadrlar tayyorlash va raqamli transformatsiya**

Farg'ona davlat universiteti va Farg'ona politexnika instituti bazasida ekoturizm bo'yicha maxsus magistratura va bakalavr dasturlari ochish tavsiya etiladi. Hozirda viloyatda sertifikatlangan ekotur-gidlar soni atigi 47 ta atrofida bo'lib, bu talab hajmining 12–15% ini qoplay oladi. Kerakli soni 2030 yilga kelib 380–420 ta gidga yetkazish zarur.

Raqamli yo'nalishda esa Farg'ona ekoturizm platformasini yaratish, QR-kod asosidagi tarix va ekologiya marshrutlarini joriy etish hamda xalqaro Booking.com, Viator va GetYourGuide platformalarida viloyat ekotur mahsulotlarini joylashtirish tavsiya etiladi. 2023 yil ma'lumotlariga ko'ra, xorijiy

---

<sup>8</sup> Bieger, T., & Laesser, C. (2002). Market segmentation by motivation: the case of Switzerland. *Journal of Travel Research*, 41(1), 68–76.



turistlarning 78% sayohat rejasini onlayn tuzadi<sup>9</sup>. Bu esa turizm sohasini raqamlashtirish imkonini oshiradi.

### **Xulosa**

Olib borilgan tadqiqot shuni ko'rsatadiki, Farg'ona viloyati Markaziy Osiyo miqyosida yuqori ekologik turizm salohiyatiga ega bo'lgan strategik hududlardan biridir. 2019–2023 yillar statistikasi ekoturizmning 8.2% dan 21.3% gacha o'sishi viloyatda tezkor rivojlanish bosqichi boshlanganligini tasdiqlaydi. Taklif etilgan uch klasterli hududiy model — "Quva-Oloy", "Marg'ilon-Rishton" va "Qo'qon-Quva" — to'g'ri amalga oshirilsa, 2030 yilga kelib yilik turistlar oqimini 430 ming kishiga va daromadni 1 trln. so'mdan oshirishga imkon beradi.

Modelning muvaffaqiyati uchta asosiy shartga bog'liq: ekologik sig'im monitoringini ta'minlash, mahalliy aholining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va zamonaviy raqamli marketing vositalaridan foydalanish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Bieger, T., & Laesser, C. (2002). Market segmentation by motivation: the case of Switzerland. *Journal of Travel Research*, 41(1), 68–76.
2. Butler, R. W. (1980). The concept of a tourist area cycle of evolution. *Canadian Geographer*, 24(1), 5–12.
3. Ceballos-Lascuráin, H. (1996). *Tourism, ecotourism, and protected areas*. IUCN, Gland, Switzerland.
4. Fennell, D. A. (2008). *Ecotourism* (3rd ed.). Routledge, London and New York.
5. Honey, M. (2008). *Ecotourism and sustainable development: Who owns paradise?* (2nd ed.). Island Press.
6. Liddle, M. J. (1997). *Recreation Ecology: The Ecological Impact of Outdoor Recreation and Ecotourism*. London: Chapman & Hall, pp.
7. UNWTO (2023). *Tourism Highlights 2023 Edition*. World Tourism Organization, Madrid.
8. Toshmatov, A. (2021). Farg'ona vodiysining tabiiy resurslari va ulardan turizm

---

<sup>9</sup> UN tourism.

<https://scientific-jl.com/>



maqsadlarida foydalanish. O'zMU xabarleri, 3, 112–118.

9. Yo'ldoshev, S. (2022). Hududiy iqtisodiyotda turizm klasterlarini shakllantirish metodologiyasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
10. UN tourism .
11. O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (2022). Biologik xilma-xillik monitoringi: Farg'ona hududi. Toshkent.
12. O'zbekiston Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi (2022). Biologik xilma-xillik monitoringi: Farg'ona hududi. Toshkent.